



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko'chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

31.01.2022 yil

Beshariq tuman
Moliya bo'limi

XULOSA

(tuman moliya bo'limi
3-sonli shartnoma loyihasiga)

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyhaning nomi: Siqilgan gaz mahsulotlari yetkazib berish to‘g‘risidagi № 3-sonli shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman moliya bo'limi tomonidan 2022 yil 31 yanvar kuni ishlab chiqilgan va shu kuni dasturga kiritilgan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif: Beshariq tuman moliya bo'limi hamda “METAN GAZ BARAKALI” ma’suliyati cheklangan jamiyat o‘rtasida siqilgan gaz mahsulotlari yetkazib berish to‘g‘risidagi 1 500 000 (bir million besh yuz ming) so‘m №3-sonli shartnoma loyihasi amalidagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o‘rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagagi 670-I-sonli “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyayining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 10-moddasi (Xo‘jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatining 22-bandida benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yoqilg‘isi va ko‘mir mahsulotlarini sotib olish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra:

XULOSA

Mazkur shartnoma loyihasini tuzish amalidagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

**Beshariq tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti:**



X.Abdurafiqov